

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI TARBIYACHI SIFATIDA

Hayitova Zilola Maxmudjonovna

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15411038>**

Barchaga ma'lumki, tarbiya va ta'lim tizimida o'qituvchi asosiy o'rinni egallaydi, chunki u boshlang'ich ta'lim keyingi ta'lim taraqqiyotini belgilaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchi ishining dolzarbligi nafaqat unga tegishli bo'lgan ta'lim va tarbiya usullari bilan belgilanadi, balki uning shaxsiyati, mahorati, xarakteri, mehnatga ijodiy munosabati, talabalar bilan munosabatlari bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchi hamma narsaga javobgar, u hamma narsani bilishi va qo'lidan kelishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining mehnati boshqa har qanday ish bilan taqqoslanmaydi sababi uning natijasi kelgusi jamiyatning egalari ya'ni har bir o'quvchi shaxs jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgardir. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir vaqtning o'zida tarbiyachi, o'qituvchi, o'quvchilar va ularning ota-onalari va hamkasblari bilan muloqotda ishtirok etuvchi, bolalar faoliyatining tashkilotchisi, pedagogik jarayonning tadqiqotchisi va maslahatchisidir.

K.D.Ushinskiy ilmiy fikrlarida "Ta'limda hamma narsa o'qituvchi shaxsiga asoslanishi kerak, chunki tarbiyaviy kuch inson shaxsiyatining jonli manbasidan kelib chiqadi" - deb ta'kidlab o'tgan[3].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy muhim fazilatlariga quyidagilar kiritishimiz mumkin: tez qaror qabul qilish qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, amaliylik, bolalarga muhabbat, psixologik barqarorlik, quvnoqlik, yuqori madaniyat darajasida faol hayotiy pozitsiyalarga ega bo'lishi lozim[2].

D.U.Abdullayevaning ilmiy fikrlarida "Kichik maktab yoshidagi o'quvchi dastlabki yillar davomida ko'proq qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bo'ladi. Kichik maktab yoshi davri shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrning xarakterli belgilari shundan iboratki, bunda shaxs sifatleri, xarakter xislatlari, bilishga qiziqish, shaxslararo munosabatlarning tarkib topishiga tayanch nuqta vazifasini o'taydi"[1].

Bu davrda bolani ortiqcha jismoniy zo'riqishsiz o'qishga, diqqat-e'tiborli bo'lishga o'rgatib borish lozim. Buning uchun oilada ham, maktabda ham bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining imkon qadar qiziqarli bo'lishiga erishish lozim. Bu borada o'qituvchilar, psixolog va ota-onalarning birgalikdagi sa'y-harakati bolaning o'ziga nisbatan ishonchini ortishiga olib kelish bilan bir qatorda, uni maktabda muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlashi va ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishda yordam berishi mumkin[2].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ruhiyati va yosh xususiyatlariga mos ravishda munosabatda bo'lishi, baholash, rag'batlantirish va jazolashda har bir o'quvchiga xos ruhiy holatni hisobga olishi, har bir bolaning imkoniyati, qobiliyati, o'zlashtirish darajasini inobatga olishi, uning savollariga sabr-toqat bilan javob berishi, bolani xato qilishga haqqi borligini unutmaslik, bola bilan samimiy va yaxshi munosabatda bo'lish lozim [2].

Bizga ma'lumki, bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi muvaffaqiyat ko'plab omillar bilan belgilanadi, ularning har biri juda muhim va bu omillarni e'tiborsiz qoldirish muqarrar ravishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Professional darajadagi boshlang'ich sinf o'qituvchi o'z vaqtining ko'p qismini bolalarni o'qitish va tarbiyalashga bag'ishlaydigan yagona shaxsdir.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatimizda boshlang'ich sinf o'qituvchisi alohida e'tibor talab qiladigan shaxs bo'lib, agar boshlang'ich ta'lim jarayonida yetarli darajada professional tayyorgarlikka ega bo'lmagan o'qituvchilar egallagan bo'lsa, birinchi navbatda, bolalar azoblanadi. Qolaversa yosh murg'akkina bolada yuzaga keladigan psixologik muammolar odatda tuzatib bo'lmaydigan darajada iz qoldirishi ham mumkin[2]. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda dars mashg'ulotlarini olib boradigan, yosh avlod bilan ishlash juda katta mas'uliyatli ish ekanligini his qila oladigan mutaxassislar zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsini shakllantirishda kasbiy tayyorgarlik muammosi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi sinf o'quvchilariga bo'lgan munosabatlari ham alohida o'rin tutadi. Aynan boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'quv malakasining poydevorini qo'yishi kerak, bu esa kelajakda uzluksiz ta'limning asosiga aylanishini ta'minlaydi. Taraqqiyot psixologiyasida kichik maktab yoshidagi o'quvchining muvaffaqiyati ko'p jihatdan maktab o'quvchi sifatida shaxsiy sifatlarning rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarining ta'siri borligi aytib o'tilgan.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva D.U. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etishning psixologik xususiyatlari. - TDPU. Maktab ta'limi. Shkol'noe obrazovanie. 37 b.
2. Beknazarova L.S. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari (pedagogika kollejlari misolida). Psixol. f.n. avtoreferati. – Toshkent, 2007. - 22 b.
3. Ушинский, К. Д. Человек как предмет воспитания. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2004. –239 с.